Биография

Saodat Muhamedova



Filologiya fanlari doktori, professor Saodat Xudoyberdiyevna Muhamedova 1970-yil 13-martda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgach, 1987-yilda ToshDU (hozirgi O‘zMU) o‘zbek filologiyasi fakultetiga o‘qishga kirgan va 1992-yilda mazkur fakultetni muvaffaqiyatli bitirib, mehnat faoliyatini Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 43-maktabda o‘qituvchilikdan boshlagan. 1994-yilda ToshDU (hozirgi O‘zMU) kunduzgi aspiranturasiga o‘qishga kirdi hamda 1999-yilda professor Miraziz Mirtojiyev rahbarligida “O‘zbek tilida harakat fe’llarining predikativligi va valentligi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyani yoqladi. 2002-yilgacha universitet Tillar markazi o‘zbek tili o‘qituvchisi, markaz direktori o‘rinbosari vazifalarida ishladi. 2002-2004-yillarda “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi doktoranti sifatida “O‘zbek tilida harakat fe’llarining semantik va valentlik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ustida izlanishlar olib bordi va 2007-yilda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 2004-2016-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida dotsent, professor, kafedra mudiri lavozimlarida ishladi. 2007-yilda dotsent va 2019-yilda professor ilmiy unvonini olgan. 2016-yildan beri Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida kafedra mudiri, fakultet dekani lavozimlarida ishlab kelmoqda.

Ozarbayjon Respublikasining xalqaro “Vektor” akademiyasi akademigi.

Ozarbayjon Respublikasi Yozuvchilar uyushmasining “UIDUZ” oylik ilmiy-ommabop jurnali tahririyat kengashi a’zosi. www.ayb.az, www.azyb.az

Ozarbayjon Respublikasi Bilim Markazi markazining “ELMI IS” jurnali tahririyat kengashi a’zosi www.aem.az elmmerkezi@gmail.com

2017-yildan buyon Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida har yili o‘tkazib kelinadigan “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro konferensiya tashkiliy qo‘mitasi a’zosi.

S.Muhamedova bajarilishi 2018-2020-yillarga mo‘ljallangan “ERASMUS+”ning “Markaziy Osiyo universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini rivojlantirish – CLASS” xalqaro grantida a’zo sifatida ishlagan.

Alisher Navoiy nomidagi ToshO‘TAUda bajarilishi 2017-2018-yillarga mo‘ljallangan OT-A1-018 raqamli “O‘zbek tili va uning tarjimasi bilan bog‘liq elektron va bank-moliya terminlarining ko‘p tilli lug‘atlarini yaratish” nomli amaliy loyiha rahbari bo‘lgan.

Асарлари:

2004

Qahhorova H., Muhamedova S. O‘zbek tili (darslik). – Toshkent: Universitet

2005

Muhamedova S. O‘zbek tilida harakat fe’llarining semantikasi va valentligi. -Toshkent: Fan

2006

Muhamedova S. Harakat fe’llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta’min yaratish (metodik qo‘llanma). -Toshkent .

2007

Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (metodik qo‘llanma). -Toshkent

2009

Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o‘quv qo‘llanma). -Toshkent

2011

Mirtojiyev M., Muhamedova S. O‘zbek tilida so‘z valentliklari (monografiya). -Toshkent

2012

Muhamedova S., Yunusova Sh., Shayxova K. O‘zbek tili fanini kasbga yo‘naltirib o‘qitish (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma). - Toshkent.

Muhamedova S., Mo‘ydinov Q., Mirvaliyeva M. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish fanini sohalarga kasbiy yo‘naltirib o‘qitish (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma). -Toshkent

2013

Muhamedova S., I.Yo‘ldoshev, O‘.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari (darslik). -Toshkent.

Muhamedova S., I.Yo‘ldoshev, O‘.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik nazariyasi (metodik qo‘llanma). -Toshkent.

Muhamedova S., Mo‘ydinov Q., Mansurova U. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. -Toshkent

2014

Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o‘quv qo‘llanma, qayta nashr). -Toshkent.

Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., To‘xtamatov H. Tilshunoslik asoslari (elektron darslik). -Toshkent .

2015

Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., To‘xtamatov H. Majidova R. Tilshunoslik asoslari (elektron darslik, qayta to‘ldirilgan varianti). -Toshkent.

O‘Sharipova, I.Quvandikova, Sh.Yunusova, G.Norimova. O‘zbek tili (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari uchun o‘quv qo‘llanma). -Toshkent

Асарлари:

2017

Muhamedova S., Yunusova Sh. O‘zbek tili fanini o‘qitish texnologiyalari (metodik qo‘llanma). Toshkent

2018

Muhamedova S., M.Abdullayeva, Y.Eshmatova, Sh.Yuldasheva. O‘zbek tili va adabiyoti ta‘limida zamonaviy axborot texnologayalari (o‘quv qo‘llanma). -Toshkent: Tafakkur bo‘stoni

I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, R.Majidova, Z.Xolmanova, Sh.Sultonova. Mutaxassislikka kirish (tilshunoslikka kirish) (darslik). -Toshkent: Barkamol fayz media

2020

Muhamedova S., M.Abdullayeva, Y.Eshmatova, Sh.Yuldasheva. O‘zbek tili va adabiyoti ta‘limida zamonaviy axborot texnologayalari (o‘quv qo‘llanma, to‘ldirilgan qayta nashr). Toshkent: Excellent Polygraphy

I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, R.Majidova, Z.Xolmanova, Sh.Sultonova. Mutaxassislikka kirish (tilshunoslikka kirish) (darslik, to‘ldirilgan qayta nashr).- Toshkent: Shafoat Nur Fayz

2021

Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi (o‘quv qo‘llanmasi). Toshkent: Ishonchli hamkor.

Muhamedova S. Tilshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanmasi) .Toshkent. -242 b.

Copyright © 2022
All Rights Reserved.